TA'LIM TURLARI VA TA'LIMNI TASHKIL ETISH SHAKLLARI.TA'LIM OLGANLIKNI TASHXIS QILISH

**Raxmonova Ruxsora**
**Hikmatullayeva Aziza**
**Qurbanbayeva Lobar**
*Denov tadbirkorlik vapedagogika instituti Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalari*

**Annotatsiya:** *Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi.*

**Kalit so'zlar:** *induvidal, sinf-dars, semenar, aktiv-passiv, kombinatsion,"Buyuk didaktika".*

Ta'lim-bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tartibda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Ta'limni tashkil etish shakli

-Individual

-Sinf-dars

-Seminar va amaliy tajriba

Ta'limni tashkil etishning shakllari.

Indiviual ta'lim shakli bir qancha yutuqlarga ega. Ushbu ta'lim shaklida o'quvchining bilim darajasi, salohiyati, o'zlashtirish ko'rsatkichidan kelib chiqqan holda dars jarayoni tashkillashtiriladi.

Sinf-dars ta'lim shakli ham qancha ijobiy tomonlarni o'zida qamrab oladi. Birinchidan, ushbu ta'lim shakli guruh bo'lib dars o'tishga mo'jallangan. Shunga ko'ra dars jarayoni musobaqa tarzida amalga oshiriladi.

Seminar va amaliy dars shaklida ham o'quvchilar guru holida bo'lishadi.

Ushbu jarayonda o'quvchilar aktiv, o'qituvchining esa passiv bo'lishi talab etiladi. o'qitish tarbiyalash rivojlantirish

Har bir dars quyidagi uchta asosiy maqsadga erishishga yo'naltiriladi

Aralash (kombinatsion dars).

• Aralash (kombinatsion dars).

• Yangi bilimlarni bayon qilish darsi.

• O'rganilganlarini takrorlash va mustahkamlash darsi.

• O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini nazorat qilish darsi.
• Laboratoriya darslari.
• Amaliy darslar.

Darsning turlari va tuzilishi fanning ilg'or yutuqlari, pedagogik texnologiyalardan foydalanish, darsni o'quv-tarbiyaviy jarayon qonuniyatlari asosida tashkil etish; darsda barcha didaktik tamoyil va qoidalarning optimal nisbatlarini ta'minlash; o'quvchilar anglab yetadigan fanlararo bog'liqliklarni o'rnatish;shaxsning har tomonlama rivojlantirishni motivatsiyalash va faollashtirish ilgari o'rganilgan bilim va malakalari, shuningdek, o'quvchilarning rivojlanish darajasiga tayanish o'quv-tarbiyaviy faoliyat barcha bosqichlarining mantiqiyligi va emotsionalligi;

Zamonaviy darslar quyidagi talablarga javob bera olishi lozim:

1. Maktabgacha ta'lim
• 1. Maktabgacha ta'lim
• 2. Umumiy o'rta ta'lim
• 3. O'rta- maxsus kasb hunar ta'lim
• 4. Oliy ta'lim
• 5. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim
• 6. Kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash
• 7. Maktabdan tashqari ta'lim.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim yuqoridagi turlarda amalga oshiriladi.Ta'limning tashkiliy masalalari Al-Forobiy «Fan va aql zakovat» asarida o'quv fanlarini guruxlarga bo'lib o'qitish, ularning tarbiyaviy mohiyatini ochish masalalariga e'tibor berilgan. Pedagogika tarixida ta'lim tashkil etishning asosiy shakli dars xisoblangan. Sinf-dars tizimini didaktik talablar asosida yaratishda buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiyning (1592-1670) xizmatlari katta, uni sinov dars tizimining asoschisi sifatida butun dunyo tan olgan.

Ya.A Komenskiy «Buyuk didaktika» asarida o'quv mashg'ulotlarini guruh shaklida tashkil qilish, o'quv yili va o'quv kunini bir vaqtda boshlash, mashg'ulotlar orasida tanaffuslar berilishini, guruhlardagi bolalarning yoshi va soni bir xil alohida e'tibor berdi.

Dars davomida o'quvchilar dikkatini to'plash, materiallarni batafsil tushuntirish, o'quvchiga savollar berish, o'zlashtirish jarayonini nazorat qilish zarurligini ta'kidlaydi. Bu tarixiy jarayonda pedagogika fani oldida to'rgan muammolardan biri ta'limning tashkiliy shakllarini samaradorligini oshirish, ayniqsa, darsni samaradorligini oshirish bilan bog'lik ilmiy-nazariy uslubiy va amaliy muammolarni xal etuvchi tadqiqotlar olib borishda ko'p ishlar kilindi. O'zbekistonimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda ta'lim tizimiga yangi pedagogik texnologiyalar tadbiq etish bilan bog'lik ishlar qilinmoqda. Sinf deganda, yoshi va bilim darajasibir xil bo'lgan o'quvchilar guruxi tushuniladi.

Dars – aniq maqsadni kuzlab belgilangan vaqtda bir xil yoshdagi o'quvchi, yoshlar bilan o'qituvchi rahbarligida olib boriladigan mashg'ulotdir.

Darsning maqsadi, mazmuni, xajmi ta'lim standartlari (o'quv reja, dastur, darslik va qo'llanma) asosida belgilanadi. Dars o'quv ishlarining asosiy tashkiliy shakli ekan,bu jarayonda quyidagilarga amal qilinishi lozim: Har bir sinfda o'quvchilarning yoshi va bilim darajasi bir xil bo'lishi lozim. Dars qat'iy jadval bo'yicha belgilinagan aniq muddatda olib borilishi kerak. Dars o'qituvchi rahbarligida butun sinf bilan va alohida o'quvchilar bilan ishlash shaklida olib boriladi. Dars o'quv fanining harakteri, o'tilayotgan materialning mazmuniga qarab turli usullar va vositalarda olib boriladi va ta'lim tizimining bir qismi sifatida tugallangan bilim beradi va navbatdagi bilimlarni uzlashtirmoq uchun zamin yaratadi.

Shuni unutmaslik kerakki, o'quv yurtlarida ta'lim ishlari faqat sinf dars shaklida olib borilmasdan, balki amaliy mashg'ulotlar, tajriba ishlari shaklida ham olib boriladi. Bu mashg'ulotlar sinfdan va maktabdan tashqarida fakultativ mashg'ulotlar, tugaraklar, ekskursiyalar shaklida olib boriladi.

Dars – ta'limning asosiy shakli ekan, u ilmiy, tizimli, tushunarli, ongli va faol bulishi, bilimlar mustaxkam o'zlashtirilishi, o'quvchi talabaning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olinan xolda tashkil etilishi dars oldiga qator didaktik talablarni quyadi. Jumladan: Xar bir dars aniq maqsadni kuzlagan xolda puxta rejalashtirilmogi lozim. Bu jarayonda o'qituvchi darsning ta'limi va tarbiyaviy maqsadini belgilaydi.

Dars bosqichlarini, ya'ni qanday boshlash, qanday tamomlash ko'rgazmali materiallardan foydalanish kabilarni oldindan xal qilib oladi. Har bir dars aniq goyaviy, mafkuraviy izlanishga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchi esa ulardan tarbiyaviy maqsadda foydalanmog'i lozim. Har bir dars maktabning, ijtimoiy muxitning imkoniyatini hisobga olgan xolda amaliyot bilan bog'lanmog'i, ko'rsatmali vositalar bilan jixozlanmogi lozim. Har bir dars xarakteriga mos usul, uslub va vositalardan samarali foydalanilgan xolda tashkil etilishi lozim.

Dars uchun ajratilgan soat va dakikalarni tejash va unumli foydalanish darkor. Dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro faol munosabatda bulishi lozim, o'quvchi talaba passiv tinglovchiga aylanmaligi lozim. Mashg'ulotlar butun sinf bilan va har bir bir o'quvchi bilan, ularning shaxsiy xususiyatlari e'tiborga olingan xolda olib borilishi kerak. Darsning mazmuni va xarkteriga qarab xalkimizning boy ma'naviy merosidan, ma'naviy qadriyatlaridan samarali foydalanish.

O'tilayotgan mavzuning mazmuniga bog'lik xolda mustakil yurtimizdagi uzgarishlardan o'quvchi talablarni habardor qilish. Darsda Prezidentimizning ta'lim soxasidagi fikrlari, yurtimiz kelajagi bo'lgan yoshlarimizga, farzandlarimizga qarata aytgan

murojaatlaridan o'z urnida foydalanish. Ta'lim nazariyasi va amaliyotida dars turlari va ularning tuzilishiga ham alohida muammo sifatida qaraladi va o'rganiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi, Toshkent., «O'qituvchi»,1992.

2. I.A.Karimov. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" –T.: Ma'naviyat. 2008. 3. R.Mavlonova "Tarbiyaviy ish metodikasi" darslik. T. 2014.

4. Safo Ochil. "Mustaqillik ma'naviyati va tarbiya asoslari" T.,O'qituvchi, 1997. 5.Abu Rayxon Beruniy "Hikmatlar". Toshkent, «Yosh gvardiya»,1973.

6.Elmuradovna, J. E. (2023). Scientific Recommendations on Restoration of the Historical Appearance of Anti-Register Not Preserved. Telematique, 22(01), 275-281